

BUXORO AMIRLIGI HUKMDORI AMIR HAYDAR SAYYIDIY VA FARZANLARI IJODI

Sherxon Qorayev

“TIQXMMI” Milliy tadqiqot universitetining
Qarshi irrigatsiya va agrotexnologiyalar instituti
dotsenti, (PhD), sherxonqoraev@gmail.com

ANNOTATSIYA: Ushbu ilmiy maqola Buxoro hukmdori amir Haydar va uning farzandlari ijodiga bag'ishlanadi. Unda o'z zamoni tarixchilari asarlari ma'lumotlari asosida buxorolik podshoh shoirlar ijodi yoritiladi.

Kalit so'zlar: Taxallus, badihago'ylik, amiri Sayyid, fazlu kamol, mushoira.

АННОТАЦИЯ: Данная научная статья посвящена поэзии бухарского правителя Амира Хайдара и его детей. Освещается творчество царских поэтов Бухары на основе произведений историков их времени.

Ключевые слова: Прозвище, бадихагой, амир Сайид, фазлу камаль, мушаира.

ABSTRACT: This scientific article is dedicated to the poetry of Bukhara ruler Amir Haydar and his children. It highlights the work of Bukhara royal poets based on the works of historians of their time.

Keywords: Nickname, badihagoy, Amir Sayyid, fazlu kamal, mushaira.

Buxoro mang'itlar sulolasi vakillari bo'lgan hukmdorlar orasidan ham Amir Shohmurod Ma'sum, Muhammad Yoqub Buxoriy, Muhammad Husaynbek Miriy, Abdulahadxon Ojiz, Muhammad Siddiqxon Hashmat, Sayyid Muhammad Nosir kabi shoirlar, tarixchilar va olimlar yetishib chiqqan. Buxoro amirligini 1800 – 1826 yillarda idora qilgan ana shu sulola vakili amir Haydar Sayyidiy (1778 – 1826) ham badiiy ijod bilan shug'ullangan [1, B.14-15]. Muhammadhakimxon To'ra “Muntaxab at-tavorix” asarida yozishicha, “o'zbek podshohlari ichida amir Haydar podshoh kabi xafsalali olim va bironing haqqidan hazar qilguvchi inson o'tmagan. Bir necha piri komildan irshodlik xati olib, suluk qoidalarini mukammal o'zlashtirgan edi [2, B.70]”. Amir Haydar “Sayyid” va “Sayyidiy” taxalluslari bilan she'rlar mashq qilgan [1, B.14-15]: “Otasining asrida Qarshi voliysi ekanda Mullo Mirakxon An-Nasafiydin ta'limi ilm qilib, Buxoroda mullo Faxriddin bin Ibrohimdin axzi qiroat qilib, hofizi Qur'on bo'lg'on edi, deb xalq orasida mashhur edi. Garchand nitoqi mulki davlati zayyiqu qosir va quvvati tasallut va iqtidori zaif va fotir bo'lsa ham umuri mamlakatni xalifai bani abbosiya uslubida, xususan, Xorun ar-Rashidg'a taqlid qilur edi. Turk sultonlaridin sulton Al-Mahmud bin Abdulhamidxonni xalifa deb izhori itoat qilur edi. Xotinlar birla mushoirasi g'oyat darajada ko'p edi... Ahli ilm va talabag'a muhabbat va suhbat aylab, olarg'a zakot berib, ixtilot aylab, dars etmakg'a rag'bat qilib, o'z arki o'rdasida vaqti muayyanlarda tolibi ilmlarg'a dars etmak va olar birla majolisat va kitobxonlik qilmak birla mashg'ul bo'lur edi [3, B.114]”. Binobarin, tarixchi Mir Sadr Ziyo Sharifjon Maxdumning yozishicha, “Zamon taqozosicha Farg'ona mulkida saltanat sohibi Amir Umarxon ilm – fan, she'r va badihago'ylik sohasida zamona mumtozi bo'lsa, unga zamondosh Amir Haydar ham ana shu kabi xislatlar bilan Buxoro saltanati taxtini bezayotgan edi. Ular orasida nizo qo'pgan paytida, bu ikki podshoh o'z she'rlari orqali dahanaki jangga kirishardilar [https://kh-davron.uz/kutubxona/uzbek/tarix/ziyo-sadr-sharifjon-mahdumning-shaxsiy-kutubxonasi -01.html]”. Tarixchi Tohir Xo'jandiyning “G'aroyib sipoh” asarida ham Buxoro amiri Haydar, Qo'qon xoni Umarxon, Xorazm xoni Muhammad Rahimxon o'rtasidagi she'riy yozishmalar haqida shunday yozilgan: “Buxoroyi sharif dorulmulkida zamona xonining hamasri Amir sayyid – amir Haydar podshoh edi. Vaqti – vaqti bilan ularning o'rtasida elchilar borib kelar, bir – birlari bilan mutoyiba qilib turardilar. Bir safar janob amiri sayyid o'zini katta hisoblab, jannatmakon Umarxonni itoatkor bo'lishi mazmunida xat yozib edilar. Elchi kelib xat mazmuni ma'lum bo'lgach, shoirlarni chaqirtirib, uning ma'nosini izhor qildilar. Shoirlar xatning javobiga quyidagi mazmundagi ma'noni topdilar:

**Buxoro amiri meni mute' qilishga loyiq bo'loladimi,
Umar xalofat taxtida Haydardan oldin bo'lsa.**

Elchi qaytib borgach, amiri sayyid xat javobini ko‘rib kuldilar. Buxoroyi sharifning fozillari (xonning hozirjavobligiga) tahsin va ofarin aytdilar.

O‘sha vaqtda Urganchda Muhammad Rahimxon o‘z davrining voliysi edi, bu muborak she‘rni o‘qib, amiri sayyid huzuriga elchi yuborib, xatning mazmunini (turkiyda) shunday yetkazdilar. Bayt:

**Muhammad Rahim oldida topsa joy,
Umar tobe’ o‘lurmi, Haydar mute’.**

Muhammad Rahimxon ushbu haqqoniy mazmun bilan gapning dodini berdi[5, B.30-31]”. Albatta, ushbu bayt orqali Muhammad Rahimxon qo‘shni hukmdorlar – amir Haydar va Umarxondan o‘zini yuqori tutgani anglashiladi. Bayt mazmunidan Muhammad (S.A.V.) – payg‘ambar, Rahim – Allohning 99 ismidan biri, ikki xalifa Umar ibn Xattob va “Haydar” laqabi bilan mashhur Ali ibn Abu Tolib - Muhammad (S.A.V.) payg‘ambarga quloq solgani va uni Rahim (Alloh) oldida tursa, xalifalarning unga ergashishi g‘oyasi ma‘lum bo‘ladi. Bu misralar bilan Xorazm xoni Muhammad Rahimxon I qo‘shni o‘zbek hukmdorlarini unga itoat etishga da‘vat etgan. Holbuki, Amir Haydar ham o‘z she‘riy maktublari orqali qo‘shni sultonlarni unga buysunishga chorlagan.

Chunonchi, “ham shoir, ham olim bo‘lgan bu podsho yoshlik davridayoq din ilmini chuqur o‘rganish, Qur‘on yod olish, kunora ro‘za tutishni ahd qilgan bo‘lib, bu uch majburiyatni o‘z ahdiga muvofiq ado etardi. Aksar vaqtini ulamolar suhbatini bilan o‘tkazardi[8, B.29-30]”. Qur‘onni yod olganligi uchun manbalarda Hofizi Qur‘on podshoh sifatida tilga olinadi [6, B.144]. Mulla Olim Maxdum Hojining yozishicha, Amir Haydarning ikkinchi muhrida quyidagi bayt yozilgan:

**Shahid bo‘lg‘on Abulfayzxon,
Shohlik taxtiga o‘tirdi Haydarxon [3, B.113].**

Mirza Abdulazim Somiy o‘zining “Mang‘it sultonlari tarixi yoki Buxoro xonligining inqirozi” kitobida yozishicha, Amir Haydar saxovatpesha, olim va odil podsho edi. Barcha ilmlardan yetarlicha xabardor bo‘lib, ilm ila shug‘ullangan paytlarda, kori davlat va bandligiga qaramay, ilmi ilohiyotni o‘rganmoqda bo‘lgan tolib-ul ilmlarga saboq berar va shogirdlarining davrasi ming kishidan kam bo‘lmasdi[7, B.15]. Ahmad Donishning yozishicha, “Tinch va osoyishta kunlarda amir poytaxtda ekanida ulamolar guruhi uning huzurida to‘planar va o‘z suhbatlari bilan ko‘nglini xushnud qilardi. Buxoro maxdumlarining mashhur va izzatli farzandlari guruh-guruh bo‘lib, arkka chiqar va amir qoshida ta‘lim olishar va ilmiy bahslar yuritar edi. Hech kim bir davrda bunday hukmronlik tartiboti haqida so‘z yuritmaydi. Uning ovozasini barcha musulmon o‘lkalariga tarqaldi va zaminning turli yerlari va yurtlaridan mardumlar Buxoroga ta‘lim olish uchun kela boshladi [8, B.23-31]. Ilm va shariat qonunlari shu qadar ravnaq topdiki, islomiyatda ilgari o‘tgan bironta hukmdor davrida ulamolar bu kabi izzat va shuhratga erishgan emaslar [<https://ziyouz.uz/ilm-va-fan/tarix/tohir-muhamedov-savod-tarixga-oid-hujjat/>]”. Amir Haydar ziyoli davlat boshlig‘i va odil hukmdor bo‘lib, uning davlat ishlari bilan nechog‘lik band bo‘lishiga qaramasdan olimu – fuzalolar bilan huquqiy mavzulardagi mashg‘ulotlarda doimiy ishtirok etishini hamda ularning fikriga tayanib ish tutganligini e‘tirof etadilar [10, B.21]. “Tarixi saltanati xonadoni mang‘itiya”da yozilishicha, Amir Haydar hukmronlik qilgan davrda Buxoroda ilm – fan, xususan, tarix va islom ilmlari gullab yashnagan. Amir Haydar Istanbul, Kobul va boshqa shaharlardan madrasalarda dars berishda foydalaniladigan ko‘plab qo‘lyozma kitoblarni keltirgan va ulardan nusxa ko‘chirtirgan. Uning o‘zi muntazam ravishda 400 – 500 maxdumzoda (talaba)ga saboq bergan. Amir Sayyid Haydar islom fiqhining hanafiya mazhabiga oid “Al-favoid al-alfiya” nomli asar yozgan. Ushbu risola o‘z davri olimlari tomonidan yuqori baholangan [10, B.21]. Amir Haydar davlat hujjatlarini tizimlashtirishga alohida e‘tibor qaratgan mang‘itlar sulolasining dastlabki hukmdorlaridan biri ekanligi bilan ham diqqatga sazovordir [11, B.40-42]. O‘zbekiston Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik institutining boy qo‘lyozma xazinasida “Sayyid Amir Haydar Bahodirxon maktuboti” nomli bir nodir qo‘lyozma saqlanadi. Unda Buxoroyi sharif taxtini 1799-1800 dan to 1826 yilga qadar boshqargan Amir Haydarning turli xil rasmiy maktub va hujjatlarining nusxalari (jami 963 ta) jamlangan. Amir Haydar o‘z maktublariga Qur‘ondan ko‘plab oyatlar kiritadi, ayrim o‘rinlarda she‘riy misralarga murojaat etadi. Ular xonning o‘zinikimi yoki boshqa biron bir ijodkornikimi, hozircha bizga ma‘lum emas [<https://ziyouz.uz/ilm-va-fan/tarix/tohir-muhamedov-savod-tarixga-oid-hujjat/>].

Ma'lum bo'lishicha, "Majmu'ayi maktuboti Sayyid Haydar Bahodirxon" - hammasi 963 atrofida hujjatni o'z ichiga olgan; 464 varaqdan iborat; yaxshi nusxasi O'zbekiston Respublikasi FA Sharqshunoslik institutining qo'lyozmalar fondida 2120/N tartib raqami bilan saqlanmoqda. XIX asrning birinchi yarmida ko'chirilib, kitob shakliga keltirilgan to'plam mazkur amirning 10 yil (1814 – 1824) mobaynida yozgan maktublarini o'z ichiga oladi [12, B.51-53]. Maktublarda Buxoro amirining ma'muriy – xo'jalik faoliyati, shuningdek, uning davrida amalda bo'lgan qonun – qoidalar, yer egaligining turlari (suyurg'ol, tanho, mulki xurriy xolis) hamda soliqlar (xiroj, zakot, ushr va boshqalar) haqida muhim ma'lumotlarni uchratamiz. Quyida misol tariqasida maktublardan birini keltiramiz: "Hoqonning hurmatiga sazovor bo'lgan, davlatining ishonchli odami Muhammad Hakimbiy mehtar bilsinlarki, yakshanba kuni sihat – salomat Qarshiga kelib qo'ndik. Insholloh, (kelasi) yakshanba kuni Samarqandga jo'naymiz. Bizga lozim bo'lgan va (janoblariga) tayin qilingan narsalarni olib, agar Qarshiga kelolmaydigan bo'lsalar, O'rta Cho'l va Xuzor Bug'a orqali huzurimizga yetib kelsinlar. Madrasai oliyga vaqf etilgan "Xazonayi muftadiyn" otlig' kitobni mehtardan talab qilib olsinlar va tolibi ilmlarning qo'liga topshirsinlar [12, B.51-53]".

Buxoro hukmdori amir Haydar huzurida ham mushoira kechalari o'tkazilgan. Amir Haydar saroyida shoir Hoziq, shoir va tarixchi Mirzo Sodiq Jondoriy (u munshiy lavozimida ishlab, tarixga oid "Futuhoti Amiri Ma'sum (Shohmurod) va Amir Haydar" va "Tarixi Manzum" asarlarini yozgan), tarixchi olimlardan Mullo Ibodulloh va Mullo Muhammad Sharif ("Tarixi Amir Haydar" asari muallifi), Muhammad Sharif ibn Muhammad Naqiy ("Toj at-tavorix" asarini 1800 yili yozgan), Mir Zohid Xo'ja Sadr ul Xattob ("Shijoatnomai sultoni olam" yoxud "Tarixi Amir Haydar" nomli asar muallifi), Abdulkarim Buxoriy ("Xuroson, Hindiston, Afg'on va Turon davlatlaridagi podshohliklar va mulklarning 1747 – 1830 yillardagi tarixi" asari muallifi), Mir Husayn ibn Shohmurod Miriy ("Maxazan at-taqvo" asarini yozgan), Mu'in ("Zikri ta'dad-i podshohon-i o'zbek" asari muallifi), Muhammad Ya'qub Buxoriy ibn Amir Doniyol ("Risola" va "Gulshan al-mulk" asarlari muallifi), so'fiy va qozi Humuliy ("Tarixi Humuliy" asari muallifi), Mirzo Shams Buxoriy ("Buxoro, Ho'qand va Qoshg'ardagi hodisalar bayoni" asarini yozgan) kabi olimlar va shoirlar yashab, ijod etgan [11, B.40-42] va adabiy majlislarda qatnashgan.

Ahmad Donish va Abdulazim Somiyning yozishicha, "amir Haydar betob bo'lib, o'lim to'shagida yotganida saroy ahlini huzuriga chaqirib, eng katta o'g'li Husayn to'rani o'zining valiahdi deb e'lon qilgan. Shu tariqa, amir Haydar vafotidan so'ng taxtga uning to'ng'ich o'g'li Husayn to'ra o'tiradi. U oliyhimmat va adolatpesha, raiyatparvar inson bo'lgan. Uning amirlik faoliyati 76 kunga yetganda, 1826 yilning 21 dekabrda to'satdan vafot etgan. Tarixchi Mu'in o'zining "Zikri te'dodi podshohoni o'zbek" asarida yozishicha, Husayn bedavo nisho' (o'simta) kasaliga chalinib, 30 yoshida vafot etgan. Ba'zi manbalarda esa amir Husayn Hakimbiy qushbegi tomonidan zaharlab o'ldirilgani qayd etilgan [5, B.62]". Amir Husayn ibn Haydar "fazlu kamolga yetishgan bo'lib, uning zehni o'tkir bo'lgan, ko'p fanlarni puxta egallagan, she'riyat, alkimyo, tibbiyot ilmidan xabardor bo'lib, fol ochishni bilgan [8, B.31]".

Muallifi noma'lum "Zafarnomai xusraviy"da yozilishicha, Amir Haydar barcha farzandlari – olti nafar shahzoda tarbiyasiga alohida e'tibor bergan: "Bu olti nafar oliy gavhar shahzodalar oydin qalbli, adolat xislatli otalari hazrat Amir Haydar hayotlik paytida yetuklik va kamolot sarhadiga yetishib, aqliy va naqliy, hadis va kalom ilmlaridan to'la bahramandlik topgan edilar. Garchi Mir Muhammad Husaynixon ilmu fazl va san'at bog'idan maza tatigan bo'lsa ham, otasi davlati ayyomida "as-suhbata muaasira" buyrug'iga ko'ra, nojins hamsuhbatlar suhbatlari ta'siri va nomuvofiq rafiqlar o'rtog'ligi kasofatidan bang va ko'knor ash'asi bilan bulg'anib, hamisha nomunishonsizlik burchagi go'shanishinligi va xilvatxona e'tikofi bilan bo'lib, bashariy yaxshi-yomonlik hamda sipohigarchilik qonunidan bexabar o'tirardi [13, B.16]". Manbalarda qayd etilishicha, barcha ilmlarni egallagan shahzoda Husaynga mashhur shayx Muhammad Sharif A'laviy al-Buxoriyning avlodi bo'lgan mavlono Sharif Xoja Mavlaviy ustozlik qilgan [5, B.63]. Ahmad Donish "Risola yoxud Mang'itlar xonadoni saltanatining qisqacha tarixi" asarida Amir Husaynning she'r yozganini alohida qayd etgan: "Amir Haydardan so'ng Buxoro taxtiga o'tirgan Husaynning podshohligi uzoq davom etmadi. U taxtga o'tirgandan keyin ikki oyu o'n to'rt kun o'tgach olamdan o'tdi.

She'r yozishni bilar edi. U 30 yil umr ko'rdi [8, B.31]".

Amir Husayndan so'ng taxtga amir Haydarning uchinchi o'g'li amir Umarxon o'tiradi. Muhammadhakimxon To'raning yozishicha, "amir Umarxon qo'lidan ish kelmaydigan va himmatsiz podshoh bo'lib chiqdi. Kechayu kunduz qizil may ichish bilan mashg'ul edi. Doimo gul qomatli va go'zal yuzli ma'shuqlar bilan suhbat qurar, ammo sira mamlakat ishiga boqmas edi. Amirlar qarashsa, bu podshoh davlat ishlariga qaraydigan emas. Bu borada chora topolmay, noiloj yashirin ravishda Qarshiga amir Nasrullohxon yoniga (Buxoro taxtini egalla deya) chopar yubordilar [2, B.72-73]". Manbalarda yozilishida, haqiqatan ham amir Umarxon mayxo'rlik va ayshu-ishratga berilgan edi [8, B.86].

Amir Nasrullohxon Buxoroga kelishi bilan Umarxon Arkni tark etdi. Shundan keyin Buxorodan chiqarib yubordilar. Xuroson orqali Qo'qon xonligiga keldi. Uni Sulton Mahmudxon kutub oldi: "Mehmon Haydar podshohning amakisi Mahmudbiy ibn Doniyol otaliqning iffat pardasi ortida o'tirgan qizini o'z nikohiga kiritdi va hech nima bilan ishi bo'lmay Xuqand ko'chalarida kezib yurishni odat qilib oldi. Bu podshohning holidan xabar oladigan biror kimsa topilmasdi. 1244/1828-29 yili ommaviy vabo balosi yopirilib, ul jahon ko'rmagan podshohzodani ham ayni yoshlik chog'i ming gulidan bir guli ochilmay turib, ajalning bu uchqur shamoli so'ldirdi. Bu yolg'onchi olamdan qaytish payti ushbu misra tiliga kelgan ekan. Misra':

**Havoyi yoru diyoram chu bigzarad ba xayol,
Shavad manozilam az obi dida molo – mol.**

(Mazmuni: Yorim va diyorum havasi xayolimdan o'tganda, O'tirgan yerim ko'z yoshidan dengiz bo'ladi).

Podshohlik muddati Buxoroda uch oy bo'ldi va uch yarim yil vatandan judolik va sargardonlikda yurib, yigirma ikki yoshida vafot etdi [2, B.77]".

Manbalarga nazar tashlasak, Buxoro amiri Haydarning yana bir o'g'li Nasrullo ham ayrim paytlarda she'rga aytganiga amin bo'lamiz. "Zafarnomayi xusraviy" yozilishicha, "turonliklar to'rasi, jalolatnishon amirzoda Sayyid Mir Nasrullo Muhammad Bahodir Sulton kichik yoshidan xalq orasida zehni o'tkirligi va ta'b sofligi bila quyoshdek ravshan bo'lib, har bir ishda xos va omga maqbul bo'lgandi [13, B.6]". Mir Sayyid Olimiy o'zining "Buxoro – Turkiston beshigi" kitobida Amir Nasrulloning quyidagi baytini keltirgan:

**Mazlum haqini bermoqni vojib bil, farz ayla,
Ki o'zga so'zing bo'lsa qimmat, kel, evaz ayla [14, B.48].**

Amir Nasrulloning huzurida ham adabiy majlislar o'tkazilganini manbalar tasdiqlaydi. Ziyo Sadrning yozishicha, "Mavlaviy Inoyatullohxon Sudur bolalik payti va tahsil olishi zamonidan to' keksalik yoshiga yetguniga qadar ilm bobida va xattotlik san'ati sohasida dong taratib o'tdi. Zukko bolaning bunday iste'dodi borasidagi xabar zamon sultoni va Buxoro amiri Amir Nasrullo Muhammad Bahodirxon qulog'iga yetdi, sinab ko'rgach, yoshgina bolakayning bunday teran aqlu –hushi, ilm sohasidagi bilimi va she'r donligidan hayratga tushgan. In'omlar bilan siylab, ta'til tunlari shohlik yig'iniga kelishini tayinlagan [https://kh-davron.uz/kutubxonasi/uzbek/tarix/ziyo-sadr-sharifjon-mahdumning-shaxsiy-kutubxonasi-02.html]". Binobarin, Amir Nasrullo saroyida shoirlar ishtirokida ana shunday she'riyat yig'inlari tez-tez uyushtirilgan. Shoir Hoziq ham adabiy bazmlarda qatnashgan. Naql qilinishicha, shoir Hoziq Amir Nasrulloning yaqin shoirlaridan biri bo'lgan: "Maxdum Hoziq amiri Buxoroga kechayu kunduz hamnishin erdilar, ziyoda gustoh ekanlar, amir farmoyish qildikim, "bizni bu safardin bo zafar kelganimizga bir fard bayt mashq qilib, bir nimarsa ayting", - dedilar. Darhol bu baytni o'qidilarkim. Nazmi Hoziq:

**Buridi bar qadi xud az malomat,
Libosi to ba demoni qiyomat.**

(Mazmuni: O'z qaddingga la'natlardan shunday bir libos tikib kiydingki, u libos ustingda qiyomatgacha qoladi.) [16, B.21-22]".

Bu baytni eshitib, amirning jahli chiqadi va hech nima demasdan o'rdasiga yo'l oladi. Shu kechadayoq shoir Shahrisabzga qochib ketadi. Ammo "Qassob amir" deb nom olgan Nasrullohxon qotil yollab,

shoirning boshini tanasidan judo etgani tarixdan ma'lum. Adabiyotshunos olim Ibrohim Haqqul amir Nasrullo davrida yashagan buyuk alloma Ahmad Donish hayoti va ijodiga bag'ishlangan esesida bu amirning yomon xislatlari sirasiga uning ilmu – irfon va ilm ahliga qo'rquv, hadik va shubha ko'zi bilan qaraganini ham kiritadi [21,B.78]: “Masalan, amir Nasrullo har bir haqgo'y olim va ijodkorni davlat, jamiyat uchun ham xavfli, ham zararli deb hisoblardi. Uning zamonida ilm va ijod bilan ozgina nom chiqarish yoki tilga tushish – ofat va musibatga yo'liqish bilan barobar edi [21, B.78-79]”.

Muxtasar aytganda, Amir Haydar va uning farzandlari ijodi, asarlari va aytgan misralari o'z davri manbalarida yoritilgan. Tarixiy va adabiy manbalarni o'rganish orqali Buxoro hukmdorlarining ijodga yaqinligiga, atroflariga shoirlarni to'plab, adabiy majlislar o'tkazganiga, maddoh ahlini qo'llab quvvatlaganiga amin bo'lamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Qosimov B., Yusupov Sh., Dolimov U. Milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyoti. T.: Ma'naviyat, 2004.-B.14-15.
2. Muhammadhakimxon To'ra. Muntaxab at-tavorix. (Xo'qand va Buxoro tarixi, sayohat va xotiralar). Fors-tojik tilidan tarjima, muqaddima va izohlar muallifi Sh.Vohidov. T.: Yangi asr avlodi, 2010.-B.70.
3. Mulla Olim Mahdum Hoji. Tarixi Turkiston. Qarshi, Nasaf, 1992.-B.114.
4. <https://kh-davron.uz/kutubxona/uzbek/tarix/ziyo-sadr-sharifjon-mahdumning-shaxsiy-kutubxonasi-01.html>
5. Zamonov A., Egamberdiev A. Buxoro amirligi tarixi (XVIII asr o'rtalari – XIX asr o'rtalari). T.: Tamaddun, 2022.-B.60-61.
6. Zamonov A. O'rta asr tarixiy shaxslari hayotining ayrim noma'lum sahifalari. T.: Bayoz, 2020.-B.144.
7. Mirza Abdulazim Somiy. Mang'it sultonlari tarixi yoki Buxoro xonligining inqirozi.// Toshkent. Sharq yulduzi. 1993.-№3.-B.15.
8. Ahmad Donish. Risola yoxud mang'itlar xonadoni saltanatining qisqacha tarixi. Tarjima, izohlar va kirish so'z muallifi Q.Yo'ldoshev.T.: O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi DIN, 2014.-B.23-31yu.
9. <https://ziyouz.uz/ilm-va-fan/tarix/tohir-muhamedov-savod-tarixga-oid-hujjat/>
10. Shodiev J. Buxoro amirligi davlatchiligining rivojlanishi. T.:TDYuI nashriyoti, 2010.-B.21.21.
11. Rajabov Q. Amir Haydar yoxud Amiri Sayyid.//Buxoro, Buxoro mavjlari, 2006 yil, fevral.-№2.-B.40-42.
12. Mirzaev B., Majidov A. Manbashunoslik (XVI – XIX asrning birinchi yarmi). T.: “Famus Press”, 2022.-B.51-53.
13. “Zafarnomayi xusraviy”. Toshkent.: 2011.-B.16.
14. Sayyid Mansur Olimiy. Buxoro – Turkiston beshigi. Buxoro, 2004.-B.48.
15. <https://kh-davron.uz/kutubxona/uzbek/tarix/ziyo-sadr-sharifjon-mahdumning-shaxsiy-kutubxonasi-02.html>
16. Mirzoolim Mushrif. Qo'qon xonligi tarixi. T.: G'.G'ulom nomidagi ASN, 1995.-B.21-22.
17. Abbasqulixon. Buxoro safarnomasi. (Amir Nasrulloh va Muhammadshoh Qojor o'rtasidagi diplomatik munosabatlarga doir.1844 yil.).Toshkent: 2019.-B.16.
18. Qorayev Sh. Shayboniy sultonlar tazkirasi. Monografiya. Qarshi, Intellect, 2023.-B.206.
19. Qorayev Sh. O'rta asr manbalarida o'zbek xonliklari adabiy kechalari tarixi (Muhammad Shayboniyxon va shayboniyilar davri misolida). Monografiya. Qarshi, Intellect, 2023.-B.148.
20. Qorayev Sh. O'zbek sultonlari tazkirasi. Monografiya. Qarshi, Intellect, 2024.-B.163.
21. Haqqul I. Ahmad Kalla // -Toshkent, Tafakkur, 2005 yil.-№3-son.-B.78-79.